

## O'QUVCHILARDA MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10429504>

**Adurasulova Umida Sadullayevna**

*Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi, PhD*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim va uning maqsadi, ona tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*ta'lim, innovatsion ta'lim, morfologiya, interfaol metod, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogika, nutqiy kompetensiya*

## INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS

### **Annotation**

*This article talks about modern education and its purpose, the importance of using interactive methods in teaching the mother tongue, education based on the competence approach.*

### **Keywords**

*education, innovative education, morphology, interactive method, competence approach, modern pedagogy, speech competence*

Zamonaviy ta'lim tizimining maqsadi va mazmuni barkamol shaxs kamolotiga qaratilgan bo'lib, insoniyatning taraqqiyoti har bir shaxsdan keng tasavvur va aniq qaror qabul qilish, o'rganilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashni talab qilmoqda.

Milliy mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan istiqbol yo'limiz, milliy g'oya va mafkuramiz aniq qilib belgilab olindi. Biz o'z ta'limiy-tarbiyaviy maqsadimiz va vazifalarimiz, uni amalga oshirish dasturlarimizni belgilab oldik. Zero, zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi ham yetuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, ma'rifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ta'limni jamiyat madaniyatini o'zlashtirish asosida ta'lim oluvchilarda faoliyatning turli sohalarida shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida ham qarash mumkin bo'lib, o'z navbatida, kompetensiyaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish uchun asos yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o'rta ta'lim bilan bog'liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo'lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud. Olimlarning fikriga ko'ra, "kompetensiya" shaxs mukammal biladigan predmet – soha bo'lib, uning faoliyat ko'rsatishi uchun tayyor ekanligi, o'lchovi hisoblanadi. Ya'ni kompetensiya – bilim, amaliy ko'nikma va malakalardan kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va qo'llay olish qobiliyatidir[1]. Bundan ko'rinadiki, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi[2].

Hozirgi o'zbek tilshunosligining bugungi muammosi ham til egalari xotirasida jamlangan til faktlarining muloqot jarayonidagi tadbirning (til kompetentligi), kommunikatsiya jarayonida tilning rolini, til va til egasi munosabatini o'rganishdir[3]. Atrof-muhitni anglash, bo'layotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan kuzatib, ulardan kerakli xulosalarni chiqarish, har bir hodisaga ijodiy yondashgan holda o'zining mustaqil fikrini emin-erkin ayta olish lingvistik kompetensiyaning mazmun-mundarijasini belgilaydi[4]. Taniqli tilshunos A. Nurmonovning aytishicha, kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi til ta'limi oldiga yoshlarda muayyan kompetensiyalarni, xususan, lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrlash), pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi. O'quvchining nutqiy kompetensiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir.

Til metodistlarining ta'kidlashlaricha, nutqiy kompetensiya tuzilishini ikki asosda – lingvistik va psixologik prinsiplar asosida belgilash mumkin. Lingvistik

tamoyilga ko'ra, til bir necha sohalarning (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekan, nutqiy kompetensiya ham o'quvchilarning shu sohalarga xos kichik sistemalarni o'zlashtirishi va ulardan nutqiy vaziyatga muvofiq o'rinli foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishiga qarab belgilanadi. Til kompetensiyasiga psixologik nuqtai nazardan ikki asosiy tarkibiy qismdan tashkil topgan sistema sifatida qaraladi. Ulardan birinchisi shaxsning aloqa-aralashuv va faoliyat jarayonida to'plagan nutqiy tajriba ma'lumotlari, ikkinchisi ta'lim muassasalarida maxsus o'qitish jarayonida olgan til haqidagi bilimlari.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Hozirgi kunda o'quvchilar kompetensiyasini oshirish yo'lida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ularni o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishlari uchun kasbiy kompetensiyasi bo'lishi lozim. Kasbiy layoqat, o'z ishiga muhabbat, majburiyatni his etish yoshlar uchun juda zarur hisoblanadi. Vatan ravnaqi yoshlar qo'lida ekan, ularni o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashishlari zaruriy masala bo'lib turibdi. O'quvchilar kompetensiyasini oshirishda turli usullardan foydalaniladi. Ayniqsa, innovatsion metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Har bir tilning grammatik qurilishi ma'lum me'yorlarga, qonun-qoidalarga ega bo'lib, bu shu tilda so'zlashuvchi kishilarning ijtimoiy ruhiyati bilan belgilanadi.

O'zbek tilida "Morfologiya" bo'limi ko'plab grammatik shakllarga egaligi bilan ajralib turadi va uni o'qitishga alohida yondashuv talab etiladi. Bu bo'limni o'rgatish jarayonida so'z tarkibi bo'yicha tahlil amalga oshirib borilgandagina o'quvchi so'z shakllarini anglab, bir-biridan farqlay boshlaydi. Mavzuni mustahkamlanishiga zamin yaratadi. O'rganilayotgan so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligi va uning gapdagi sintaktik vazifasi aniqlab borilishi natijasida o'quvchilarning sintaktik bilimlari ham tobora oshib boradi. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida oldingi o'tilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni o'rganish, guruhlariga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o'zi mustaqil ta'rif chiqarishga o'rgangan o'quvchi bir-biriga o'xshash va farqli

hodisalar ustida ishlaydi, o'qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi. Mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini boshqarish yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi[5]. Ularda morfologik kompetensiyalarning shakllantirilishi, dars davomida o'quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlovchi emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda ishlovchi, o'zgarar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantirishda yordam beradi.

Morfologiyani o'qitishda o'quvchilarda morfologik kompetentlikni aniqlashning bir necha yo'llari bo'lib, interfaol metodlar eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarda morfologik kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi pedagogik omillarni inobatga olish zarur:

o'quvchilarda morfologiya bo'yicha lingvistik kompetensiya elementlarini rivojlantirishda o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va shu asosda didaktik topshiriqlardan optimal ravishda tizimli foydalanish;

o'quvchilarda morfologiya bo'yicha lingvistik kompetensiya elementlarini rivojlantirish orqali ulardan amaliyotda qo'llash olishlariga zamin yaratish;

zamonaviy ta'lim berishda asosiy urg'u o'quvchilarining nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantiradigan o'quv topshiriqlarni tanlash.

Xulosa o'rinida shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash malakasi haqida gap ketganda nafaqat ularda fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish, balki kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, bilim olish yo'llarini egallash va ilm o'rganishga qiziqtirish kabi jihatlarni nazarda tutadi. O'qituvchi shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o'quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib o'z-o'zini namoyon qila olsin. Hozirgi kun ta'limning asosiy talabi ham dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish va o'qitishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov D.S. Ta'limda kompetensiya va kompetensiyaviy yondashuv. // Umumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2017.

3. Nabiyeva D. Xolmatova G. Zamonaviy tilshunoslikning muammolari. // Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2016.

4. Sobirov A.Sh. Uzluksiz ta'limda til kompetensiyasi. // Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.2016.

5. To'xliyev va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - T.: 2009.

6. Sadullaevna, Abdurasulova Umida. "MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES FOR DETERMINATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE EFFICIENCY." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.9 (2020)

7. Абдурасулова, Умида. "О'QUVCHILARDA MORFOLOGIK КОМПЕТЕНТЛИКНИ RIVOJLANTIRISH." ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ SI-2№ 1 (2020).

8. Abdurasulova, Umida Sadullayevna. "WAYS OF IMPROVING MORPHOLOGICAL COMPETENCE." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 1.3 (2019): 356-369.

9. Abdurasulova, Umida Sadullayevna. "INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 1.7 (2019): 266-270.

10. Baqoyev, Navrozjon. "O'ZBEK TILIDAGI "QO'L" SO'ZI VA U QATNASHGAN IBORALAR SEMANTIKASI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 2, 2023, pp. 414-417.

11. Bakoev, Navruzjon, and Mushtariybonu Abdumutalova. "YAPON TILIDAGI KANSAI SHEVASI VA O 'ZIGA XOSLIGI." Interpretation and researches 1.17 (2023).

12. Bakoev, Navruzjon, and Shirin Yuldasheva. "YAPONIYA TA'LIM TIZIMI." Interpretation and researches 1.17 (2023).

13. Bakoev, Navruzjon, and Shohruhjon Ravshanov. "YAPON TILIDAGI IYEROGILIFLAR." Educational Research in Universal Sciences 2.16 (2023): 84-87.

14. Bakoev, Navruzjon, and Feride Sheraliyeva. "YAPONIYA TURIZM SOHASI VA RIVOJLANISHI." Interpretation and researches 1.18 (2023).

15. Kholmatova Saida Vokhobjonovna. (2023). PECULIARITIES OF PEDAGOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF ISHAQ KHAN IBRAT. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(11), 156-159. Retrieved from

16. Абдухоликова, Насиба Алижановна. "ТАЛАБА ЁШЛАРИНИНГ ИНТЕРНЕТ ҚАРАМЛИГИНИ ОЛДИНИ ОЛИЩДА ТАЪЛИМ МАЪРИФАТИ" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 6, 2022, pp. 403-408.

17. Шарофиддинов, М. М. (2016). Progressive Features of Railway Transport in the Independence Years. Молодой ученый, (12), 715-717.
18. Шарофиддинов, М. М. (2016). The history of Uzbekistan air transport. Молодой ученый, (9), 959-961.
19. Mirzakhalov, Sardorbek. (2021). SOCIO-DEMOGRAPHIC IMAGE OF UZBEKISTAN (on the example of the regions of the Fergana Valley, 1991-2021). Конференции. 10.47100/conferences.v1i1.1278
20. MIRZAXALOV, SARDORBЕК. ROLE OF NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN GOVERNING SMALL BUSINESSES AND YOUTH ENTREPRENEURS. 2021
21. Sobirova, Nasiba. "TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI." Interpretation and researches 1.18 (2023).
22. Абдухоликова, Насиба Алижановна. "ТАЛАБА ЁШЛАРИНИНГ ИНТЕРНЕТ ҚАРАМЛИГИНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ТАЪЛИМ МАЪРИФАТИ" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 6, 2022, pp. 403-408.